



O'ZBEKISTONDA INFLATSIYA DARAJASINING PASAYISHI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI

Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi

Ma'mun universiteti "Iqtisodiyot"

kafedrası dotsenti v.b., PhD.

+998 99 969 98 18

mavlanovabarchinoy@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0009-6069-5987>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda inflyatsiya darajasining pasayish tendensiyalari hamda unga ta'sir etuvchi asosiy makroiqtisodiy omillar kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda valyuta kursining mustahkamlanishi, eksport tushumlarining o'sishi, pul o'tkazmalari hajmining ortishi, byudjet siyosati va pul-kredit sharoitlarining inflyatsiyaga ta'siri statistik ma'lumotlar asosida baholanadi. Shuningdek, iste'mol savati tarkibidagi tovar va xizmatlar narxlarining dinamikasi, mavsumiy omillar hamda bazaviy inflyatsiya ko'rsatkichlarining o'zgarishi chuqur tahlil qilinadi. Markaziy bankning inflyatsion targetlash siyosati doirasida asosiy stavkaning roli va uni pasaytirish bo'yicha ehtimoliy qarorlarning iqtisodiy o'sish va inflyatsion bosimlarga ta'siri muhokama etiladi. Tadqiqot natijalari inflyatsiya sekinlashuvining asosan taklif omillari va real valyuta kursining mustahkamlanishi bilan bog'liqligini, biroq iqtisodiy o'sishning potensial darajadan yuqori saqlanib qolishi talab inflyatsiyasi risklarini kuchaytirayotganini ko'rsatadi. Olingan xulosalar makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va pul-kredit siyosatini optimallashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Inflyatsiya, bazaviy inflyatsiya, pul-kredit siyosati, asosiy stavka, valyuta kursi, inflyatsion kutilmalar, iqtisodiy o'sish, iste'mol savati, makroiqtisodiy barqarorlik, O'zbekiston iqtisodiyoti.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Ayniqsa so'nggi yillarda ishlab chiqarish hajmi ortishi natijasida mahsulot va xizmatlar narxi pasayganligi



inflatsiya ko'rsatkichlari ham ancha yaxshilanganini ko'rishimiz mumkin. Xususan may oyidan buyon so'm tanlab olingan valyutalar orasida eng yuqori mustahkamlangan valyutadan biri bo'lib turibdi.

Yanvar-may oylarida valyuta kursida deyarli o'zgarish kuzatilmagan edi (davr boshi va oxiri orasidagi farq). Ya'ni so'mning mustahkamlanishi aynan may oyidan keyingi davrda tezlashdi. Ta'kidlash kerakki, ayni davrda so'mning tebranuvchanligi ham sezilarli kengaydi. May oyidan buyon so'm dollarga nisbatan 8,7 foizga mustahkamlandi (1 so'mga to'g'ri keladigan xorijiy valyuta shaklida). Taqqoslash uchun bu davrda rubl dollarga nisbatan 3,7 foizga mustahkamlangan bo'lsa, teng 1,2 foizga qadrsizlangan. Yirik valyutalardan frank (2,2 foiz) hamda yevro (2 foiz) dollarga nisbatan mustahkamlangan bo'lsa, funt (-1,3 foiz) hamda ienaning (-8,6 foiz) qadrsizlanishi kuzatilgan.

So'mning yil davomida tarixiy mustahkamlanishi noaniqliklar fonida dollar indeksining pasayishi, oltin narxining yuqori o'sishi (yil boshiga nisbatan 58 foiz) natijasida eksport tushumlaridagi yuqori o'sish (10 oyda oltin eksporti 10 mlrd dollarga yetdi [1] investitsiyalarning yuqori o'sishi (birinchi yarim yillikda to'g'ri, portfel va boshqa (qarz instrumentlari) investitsiyalarning mamlakatimizga oqimi 6,5 mlrd dollarni tashkil etib, 53 foizga o'sgan [2], pul o'tkazmalarining kutilmalarga nisbatan yuqori o'sishi kabi omillar bilan izohlanadi. Xususan, pul o'tkazmalari 10 oyda 15,8 mlrd dollarni tashkil etib [2], oldingi yilga nisbatan 25 foizga o'sgan (rubl mustahkamlanishi hamda yangi mehnat bozorida migrantlarning ko'payishi asosiy omillar).

XVJning so'nggi tashrifi [3] bo'yicha xulosalarida asosiy urg'u kutilganidan ko'ra yuqori shakllanayotgan byudjet daromadlari fonida xarajatlarni oshirmaslik kerakligiga qaratilgan. Xarajatlarni oshirmaslik yalpi talabning inflyatsion bosimini pasaytirishi, real valyuta kursining kutilmagan mustahkamlanishining oldini olishi va oltin narxi pasayganda keskin tuzatishlarga ehtiyoj yuzaga kelib, makroiqtisodiy tebranishlar xavfini kamaytirishga xizmat qilishi ta'kidlangan.

Noyabr oyida 231 ta tovar va xizmatlarning narxi oldingi oyga nisbatan sekinlashgan. Taqqoslash uchun oktyabr oyida 196 ta tovar va xizmatlarda narx o'sishining sekinlashishi kuzatilgan edi. narx o'sishida sekinlashish kuzatilishi, real valyuta kursining



mustahkamlanishi va ob-havoning nisbatan iliq kelganligi bilan izohlanishi mumkin. Xususan, noyabr oyida 118 ta oziq-ovqat tovarlarining (iste'mol savatida 170 ta), 80 ta nooziq-ovqat mahsulotlari (iste'mol savatida 250 ta) hamda 33 ta xizmatlarning narxi (umumiy soni 90 ta) oldingi oyga nisbatan sekinlashgan. Narx o'sishi sekinlashgan tovarlar soni xizmatlar (5 taga) va oziq-ovqatlarda (44 taga) oldingi oyga nisbatan ko'paygan bo'lsa, nooziq-ovqatlarda 14 taga kamaygan. Lekin narx o'sishi sekinlashgan tovarlar soni oldingi yilning mos oyiga nisbatan biroz kamaygan. Xususan, 2024 yilning noyabr oyida 240 ta tovar va xizmatlar narx o'sishi sekinlashgan edi. Bunda, 128 ta oziq-ovqatlar, 62 ta nooziq-ovqatlar hamda 50 ta xizmatlarda narx o'sishida sekinlashish kuzatilgan.

Joriy yilda narxi eng yuqori o'sgan tovarlar ro'yxatini trolleybus yo'l haqi boshqarib turibdi. Trolleybus yo'l haqi 11 oyda 2 barobar oshgan, lekin masalan iste'molchilarning aksariyati foydalanishi emas hatto mavjudligini ham bilmaydigan xizmatni iste'mol savatida qolayotganligi qanchalik ma'noga ega?. Balki boshqa mos xizmat bilan birgalikda berish orqali yangi mahsulotlarni iste'molga savatiga qo'shish kerakdir.

Shuningdek, yil boshidan buyon limon (97,3 foiz), haydovchilikka tayyorlash kurslari (58,9 foiz), ichki havo transporti (53,9 foiz) kabi Tovar va xizmatlar narxida yuqori o'sish kuzatilgan. 11 oy davomida narx yuqori oshgan Tovar va xizmatlarning 2 tasi nooziq-ovqatlar, 6 tasi oziq-ovqat tovarlari hamda qolgan 12 tasi xizmatlardan tashkil topgan. 11 oy davomida narxi eng yuqori pasaygan Tovar qovoq bo'lgan. Qovoq narxi yil boshidan buyon 61,7 foizga arzonlagan. Shuningdek, yangi uzilgan tarvuz (-31,5 foiz), bulg'or qalampiri (-30,8 foiz) kabi tovarlar narxida ham yuqori pasayish qayd etilgan. 20 ta tovar va xizmatlar orasida bitta xizmat (pul o'tkazmalari uchun haq) va bitta nooziq-ovqat tovari bo'lib, qolgan 18 ta tovar oziq-ovqat mahsulotlari hisoblanadi. Bu holat mavsumiy omillar bilan izohlanishi mumkin.

Inflyatsiya darajasi kutilmalarga nisbatan ancha tez sekinlashmoqda Sentyabr oyidagi boshqaruv yig'ilishida Markaziy bank yillik inflyatsiya yil so'nggida 8,7 foiz atrofida shaklanishini prognoz qilgan edi. Oktyabr oyidagi yig'ilishda esa yillik inflyatsiya bo'yicha prognozlar 8 foizgacha pasaytirildi. Noyabr oyiga kelib yillik inflyatsiya 7,5 foizgacha



sekinlashdi. Dekabr oyida katta ehtimol bilan yillik trendda yirik o'zgarish bo'lmaydi va yillik inflyatsiya 7,5 foiz atrofida shakllanishi kutilmoqda.

Hozirgi vaqtda bir oylik yillikka tenglashtirilgan inflyatsiya 8,7 foiz, 3 oylik yillikka tenglashtirilgan inflyatsiya esa 7,6 foizda o'smoqda. Ya'ni agar narxlar o'sishi so'nggi bir oy (yoki uch oy)dagi tezlikda davom etsa kelasi yilda yillik inflyatsiya 8,7 foiz (3 oylik uchun 7,6) atrofida shakllanadi. Lekin bir oylik hamda uch oylik inflyatsiyalarda "shovqinlar" judayam ko'p, mavsumiy narxlar o'sishining tezlashishi katta ta'sirga ega. Lekin masalan 6 oylik yillikka tenglashtirilgan inflyatsiya 3,8 foizni tashkil etmoqda. Agar narxlar so'nggi 6 oydagi darajasida o'ssa unda kelasi yil yillik inflyatsiya 3,8 foiz atrofida shakllanadi. 6 oylik yillikka tenglashtirilgan inflyatsiyada shovqinlar nisbatan kam, mavsumiylik omili ham pastroq (yozgi pasayish, kuzgi tezlashish bilan qisman kompensatsiya bo'ladi). Ya'ni agar 6 oylik yillikka tenglashtirilgan inflyatsiyaga ishonsak unda biz kelasi yilda inflyatsiyani targetgacha tushishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Albatta, bu yerda kelgusi yildagi shart-sharoitlarning qanday shakllanishi (global oziq-ovqatlar narxi, oltin narxi (real valyuta kursiga ta'sir qiladi), geosiyosiy vaziyatning o'zgarishi) kartinani umuman o'zgartirib yuborishi ham mumkin. Shuningdek, Markaziy bank umumiy (va bazaviy) inflyatsiyadagi sekinlashish fonida neytral pozitsiya tomon asosiy stavkani tushirishi ham inflyatsiyani kutilganidan ko'ra tezroq shakllanishiga olib kelishi mumkin

Sanoatning YaIMdagi ulushi o'sayotgan bo'lishiga qaramasdan bandlikdagi ulushi qisqarmoqda. 2024 yilda sanoatning YaIMdagi ulushi 25 foizga yetdi [1]. Ta'kidlash kerakki, sanoatning iqtisodiyotdagi ulushi so'nggi yillarda yuqori o'sish tendensiyasini namoyon qilmoqda. Xususan, sanoatning YaIMdagi ulushi 2023 yilga nisbatan 1,2 foiz bandga, 2017 yilga nisbatan 6,7 foiz bandga, 2010 yilga nisbatan esa 9,1 foiz bandga oshgan. Lekin sanoatning bandlikdagi ulushining qisqarishi kuzatilmoqda. 2024 yilda sanoatda jami bandlarning 12,1 foizi [1] faoliyat yuritgan. Bu sohada faoliyat yuritayotganlar ulushi 2023 yilga nisbatan 1 foiz bandga, 2017 yilga nisbatan 1,4 foiz bandga, 2010 yilga nisbatan esa 1,7 foiz bandga pasaygan. Shuningdek, sanoatda bandlar sonining nominal



ko'rsatkichda ham qisqarishi kuzatilmoqda. 2024 yilda sanoatda 1,7 mln kishi faoliyat yuritgan bo'lib, bandlar soni 2023 yilga nisbatan 106 mingga kamaygan.

Asosiy stavka inflyatsiyaning prognozlarga nisbatan tezroq, bazaviy inflyatsiyasining va inflyatsion kutilmalarning sekinlashishi hamda yuqori iqtisodiy o'sish fonida ko'rib chiqiladi. Xususan, noyabr oyida oylik inflyatsiya 0,7 foizni tashkil etib yillik inflyatsiya 7,5 foizgacha sekinlashdi [1]. Oktyabr oyida Markaziy bank inflyatsiya yil so'nggida 8 foiz [2] atrofida shakllanishi prognoz qilgan edi. Undan oldingi yig'ilishda esa yillik inflyatsiya 8,7 foiz [2] atrofida shakllanishi kutilgan edi. Ya'ni so'nggi ikki oyida umumiy inflyatsiya prognoz va kutilmalarga nisbatan tezroq sekinlashmoqda. Katta ehtimol bilan yil so'nggida umumiy inflyatsiya 7,5 foiz atrofida shakllanadi.

Oylik bazaviy inflyatsiya noyabr oyida 6,3 foizgacha sekinlashgan. Yil boshidan buyon bazaviy inflyatsiya 1 foiz bandga, joriy yildagi eng yuqori ko'rsatkichga (iyun 8,6 foiz) nisbatan 2,3 foiz bandga sekinlashdi. Umumiy inflyatsiya esa yil boshiga nisbatan 2,4 foiz bandga sekinlashgan.

Valyuta kursining mustahkamlanishi hamda nisbatan qattiq pul kredit sharoitlarida aholining inflyatsion kutilmalari pasayuvchi tendensiyaning namoyon qilmoqda. Xususan, oktyabr oyida kutilmalar 11,7 foizgacha sekinlashgan (avgust oyiga nisbatan -0,5 foiz band). Yil boshiga nisbatan aholining inflyatsion kutilmalari 2,7 foiz bandga sekinlashgan. Noyabr oyi holatiga asosiy stavka va umumiy inflyatsiya orasidagi ijobiy farq 6,5 foizni, bazaviy inflyatsiya va asosiy stavka orasidagi ijobiy farq 7,7 foizni, aholining inflyatsion kutilmalari (oktyabr) va asosiy stavka o'rtasidagi ijobiy farq 2,3 foizni (tadbirkorlar kutilmalarida 3,9 foiz) tashkil etmoqda. Shuningdek, Markaziy bank 5 foizlik targetga 2026 yilda emas balki 2027 yilning ikkinchi yarmida yetishni maqsad qilgan. Shu ma'noda yuqoridagi tendensiyalardan asosiy stavkani biroz pasaytirish mumkin degan xulosaga kelish mumkin.

Lekin 9 oyda YalMning real o'sishi 7,6 foizni tashkil etdi (mening o'ylashimcha bu potensialda sezilarli yuqori). Iqtisodiyotga ajratilgan kreditlar hajmi judayam yuqori 41,4 foizda o'smoqda. oylik ko'rsatkich bo'yicha so'nggi oylarda kredit ajratish hatto tezlashgan (sentyabrda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 50 foiz). Ya'ni inflyatsion bosimlar pasayayotgan bo'lsa-da, iqtisodiyot haligacha o'zining potensialidan yuqori o'smoqda. Bu



o'z navbatida inflyatsiyaning talab omillari saqlanib qolayotganligini ko'rsatadi. Inflyatsion bosimlarning pasayishi esa asosan real valyuta kursining may oyidan keyingi davrda mustahkamlanishi bilan izohlanishi mumkin. Bunday sharoitda neytral faza tomon harakatlanishni boshlash talab inflyatsiyasining bosimlarini oshiradi.

Inflyatsiya nuqtai nazaridan qaraganda balki stavkani biroz tushirish kerak degan xulosaga kelinishi mumkin lekin, iqtisodiy o'sishning yuqori saqlanib qolayotganligi (inflyatsiyaning talab omili) sharoitida foiz stavkasini pasaytirish fazasiga o'tish menimcha eng to'g'ri qaror bo'lmaydi. Markaziy bank yil so'nggida inflyatsiya darajasi 7,3 foiz atrofida shakllanishini kutmoqda (oktyabr oyidagi yig'ilishda prognoz 8 foiz, sentyabr oyida esa 8,7 foiz edi).

Xulosa

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda inflyatsiya darajasining kutilmalarga nisbatan tezroq sekinlashayotganini ko'rsatadi. Ushbu jarayon, asosan, real valyuta kursining mustahkamlanishi, eksport tushumlarining o'sishi, pul o'tkazmalari hajmining ortishi hamda nisbatan qat'iy pul-kredit sharoitlari bilan izohlanadi. Shu bilan birga, iste'mol savati tarkibidagi tovar va xizmatlar narxlarida kuzatilayotgan sekinlashuv mavsumiy omillar va taklif omillarining kuchayganidan dalolat beradi.

Biroq iqtisodiy o'sish sur'atlarining potensial darajadan yuqori saqlanib qolishi, kreditlash hajmining tez o'sishi hamda yalpi talabning faolligi inflyatsiyaning talab omillari hanuz mavjud ekanligini ko'rsatmoqda. Bu holat pul-kredit siyosatini yumshatishga o'tishda ehtiyotkorlikni talab etadi. Asosiy stavkani keskin pasaytirish inflyatsion bosimlarning qayta kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli Markaziy bank tomonidan inflyatsion targetlash siyosati doirasida bosqichma-bosqich va muvozanatli yondashuvni saqlab qolish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Umuman olganda, inflyatsiya darajasining pasayishi makroiqtisodiy barqarorlik uchun ijobiy signal bo'lsa-da, kelgusida global narxlar dinamikasi, valyuta bozoridagi o'zgarishlar va ichki talab omillarining kuchayishi inflyatsion jarayonlarga sezilarli ta'sir



ko'rsatishi mumkin. Shu bois pul-kredit va fiskal siyosat o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash inflyatsiyani barqaror darajada ushlab turishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2024). *Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar*. <https://stat.uz/uz/>
2. International Monetary Fund. (2024). *IMF country report: Uzbekistan*. <https://www.imf.org/>
3. Kamolova, L. I. (2021). Inflyatsiya va uni tartibga solishning dolzarb muammolari: tizimli yondashuv. *Dengi i kredit*, (3), 45–53.
4. Murodov, S. R. (2021). *Inflyatsiya: zamonaviy qarashlar*. Moscow: Market DS Corporation.